

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА  
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ  
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ  
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ  
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиши методикаси кафедраси профессори Хударган  
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари  
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ  
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора  
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова  
(15 апреля 2021 года)**

**Жиззах-2021**

**УДК: 581.5 (09)**

**ББК: 28.58 Г**

**Э-59**

**“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари**

Жиззах 2021. – 498 бет.

**Таҳрир ҳайъати:**, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир ҳайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров F., таҳрир ҳайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У.  
доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э.  
б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н.  
б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С.  
б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.  
Усанов У.Н.

**Тўплам редакторлари:** б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD).  
Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

*Уибу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.*

*Уларда flora, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиши ҳамда ноёб, ўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиши, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиши, паразитлар ва энтомокомлекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.*

*Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.*

**Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартағи 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.**

**“Baliq skeleti” texnologiyasi.** Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepe qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar.

Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

**“Venn diagrammasi”.** Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobayinida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogil texnologiyalar o‘quv qo‘llanma “Ziyo press”T., 2017 y
2. D.Po‘latova Boshlangich ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiy qo‘llanma “Adabiyot uchqunlari” T., 2018 y

## **EKOLOGIK MADANIYAT VA MA'NAVİY-AXLOQIY TARBIYANING MUHIM JIHATLARI**

**Almamatova Z.X, Esankulova D. S.Aliqulova S. T.  
Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Ekologik madaniyat** – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari: 1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo‘lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhiddagi obyektlar va hodisalarini sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma’suliyatlilik shaxsda munosabat va ma’sullikni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o‘zi va o‘zgalarning atrof – muhiddagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat’iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq. Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilalar kiradi.

Ekologik madaniyatning muhim jihatlaridan biri - ekologik faoliyat bo'lib, muammolarni ratsional xal qiluvchi kishilar faoliyatining barcha shakl va ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Ekologik madaniyat - tabiatni muhofaza qilish, ishlab chiqarishni ekologizatsiyalash xamda ekologik tafakkurni shakllantiruvchi ma'naviy hayotni oladigan moddiy faoliyatdir.

Insonni qadrlash, uning manfaatlarini ruyobga chiqarish va munosib turmush sharoitini yaratib berish davlatimizning eng muhim dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Jahan sog'likni saqlash tashkiloti nizomiga ko'ra, sog'lomlik nafaqat kasallik va jismoniy etishmovchiliklarning yo'qligi, shu bilan birga to'la ma'noda ijtimoiy va ma'naviy qulaylik hamdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da salomatlik "tani-joni sog'", salomat bo'lishlik; tani sog'lik", sog'lik esa "salomatlik, kasal emaslik" deb ta'riflanadi. Yana shunday fikrmulohazalar ham mavjudki, ularda sog'lomlik inson tanasi organlari va sistemasi funktsiyalarining tashqi muhit bilan muvofiqlashish holatini anglatadi. Bunday tushunishda sog'lomlikning uch, ya'ni somatik (jismoniy kasallik), ijtimoiy va shaxsiy belgilari asos qilib olinadi. Somatik belgi - organizmning o'z-o'zini boshqarishi, fiziologik jarayonlar mutanosibligi, mumkin qadar tashqi muhitga moslashish. Ijtimoiy belgi-mehnatga qobiliyat, ijtimoiy aktivlik, insonning olamga amaliy munosabati me'yori. Shaxsiy belgisi - inson hayoti strategiyasi, hayot hodisalari ustidan xukmronligi ifodasidir<sup>2</sup>.

Sog'lom turmush tarzining mazmun mohiyati, tadqiqot doirasi, vazifalari va jamiyat hayotida tutgan o'rni sog'lom turmush tarzini tashkil etishning asosiy omillari, umumiyy tamoyillari va me'yorlari sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy – falsafiy va ma'naviy – axloqiy jihatlari sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ruhiy - psixologik va pedagogik omillari sog'lom turmush tarzini takomillashtirishda ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari sog'lom turmush tarzini shakllantirishning huquqiy – ekologik muammolari psixotrop vositalarni iste'mol qilishning oldini olish choralar, usullari, vositalari reproduktiv, jismoniy yetuklik hamda o'z o'zini hurmat qilish nazarda tutiladi<sup>3</sup>.

Aholimizning 64% ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Mana shu miqdordagi fuqarolarimizning sog'lom turmush tarzi ko'nikmasini shakllantirish bizning jamiyatimizda ehtiyoj darajasidagi hayot tarzini tarkib topishiga olib keladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya insonda hayot mazmuni deganda ideal tushunchalarni tushunish idrokini shakllantiradi. Ma'lum bo'ladiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ekologik madaniyat insonni sog'lom turmush tarzi bilan qurollantiradi. Sog'lom turmush tarzi insonni bu hayotda insoniylik mezonlariga amal qilgan holda yashab o'tishni taqozo etadi. Sog'lom hayot kechirish va baxtga intilib yashash sog'lom turmush tarzidir. Shu sababli bu tushuncha bevosita manaviy-axloqiy tarbiya bilan bog'lik mazmunga egadir.

Bunday dolzarb vazifani bajarish birinchidan, axborot istemolchilarida yuksak shaxsiy ekologik madaniyatni shakllantirish. Ikkinchidan OAV va boshqa manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni mualliflarning maqsadlarini anglab olish ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish.

<sup>2</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. (5 jildlik),3-jild.- T.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 431, 563 b.

<sup>3</sup>Tillaeva G. Sog'lom turmush tarzi – oqilona yashash omili// Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning axloqiy qadriyatlarning o'rniga ag'ishlangan ilmiy – amaliy konferentsiya materiallari.- Toshkent : 2009. 12 - 17 b.

Uchinchidan, kasbiy o'sish va shaxsiy dunyoqarashni shakllantiradigan ma'lumotlarni olib salbiy axborotlardan o'zini psixologik ximoyalash imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlash zarur. O'zbekiston mustaqilligining mustahkamligi uning ekologik madaniyat, sog'lom turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ravnaqi avvalo uning fuqorolarga ularning amaliy faoliyatiga ma'naviy axloqiy barkamolliliga, g'oyaviy siyosiy etukligiga miliy o'zligiga qanchalik anglay olishiga ko'p jixatdan bog'liqdir.

Insonning sog'lomligi nafaqat tibbiy-biologik, balki, avvalam bor, ijtimoiy kategoriyadir, oxir-oqibatda u mavjud ijtimoiy munosabatlarning tabiatini va xarakteri, ijtimoiy omillar va shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Tibbiy adabiyotlarda sog'lomlikni belgilashda bir necha xil yondoshuvlar mavjudligini ta'kidlashimiz mumkin. Shulardan biri sog'lomlikni kasallikning yo'qligi bilan bog'lab tushuntirishdir. Bunday yondoshuv asosan tibbiy psixologiya va shaxs psixologiyasi tadqiqotlariga xosdir. Biroq "sog'lomlik" fenomenini bunday izohlash ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, sog'lomlikni kasal emaslik tarzida baholash mantiqan to'g'ri kelmaydi, binobarin, tushunchani inkor yo'li bilan belgilash to'la ma'noga ega emas; ikkinchidan, bunday yondoshuv sub'ektiv xarakterga ega bulib, sog'lomlik barcha ma'lum kasalliklarni e'tirof etish bilan birga hozircha noma'lum kasalliklarni e'tibordan chetda qoldiradi; uchinchidan, bunday ta'rif tavsifiy va mexanistik bo'lib, individual sog'lomlik fenomeni, uning xususiyatlari va mexanizmini ocha olmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tillaeva G. Sog'lom turmush tarzi – oqilona yashash omili.// Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning axloqiy qadriyatlarning o'rniga bag'ishlangan ilmiy – amaliy konferentsiya materiallari.- Toshkent : 2009. 12 - 17 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. (5 jildlik),3-jild.- T.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 431, 563 b.

## **KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA CHET TILLAR BO'YICHA EGALLANGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI MULOQOT JARAYONIDA QO'LLASH QOBILYATIDIR**

**Murotova G.N., Ismatullayev O.  
Jizzax davlat pedagogika instituti**

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga yuksak e'tibor qaratilayotgani bois bu borada mustahkam tayanch baza yuzaga keldi. Ta'limning barcha bosqichlarida chet tillarini puxta o'rnatish uchun darslik va o'quv qo'llanmalar audio va video hamda ko'rgazmali materiallar yaratilib o'quvchi talabalarning qiziqishlari oshirib borilmoqda.

Bugun nafaqat darsda, balki sinfdan tashqari tadbirlarda ham o'quvchilarning ingliz tilidan olgan bilimlarining mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, yaqinda o'tkazilgan tadbirda 6ta jamoaga taqdimot qilish topshirilgan edi. Bunda guruhlarning taqdimoti 4 jihatga e'tibor qaratilgan holda baholandi. Bu jarayonda: guruh taqdimotining odob qoidalariga mos kelishi: tomoshabinni ushlab turishi-eye contant: taqdimotning dizayn rasmlarning mavzuga mos tanlangani :ishtirokchilarning notiqlik san'atiga ahamiyat berildi. Bu xususiyatlarning me'zonlar tarzida keltirilishi o'quvchilarning keying faoliyatida asqatadi.

OLAM” VA “TABIATSHUNOSLIK” DARSLARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TRIZ TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH...	94
34 BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	96
35 Ergasheva N.E., Sodiqova M.Sh.INTERFAOL USULLAR ORQALI O’QUVCHILARDA MUSTAQILISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....	98
36 Jabbarova Z. O. Islamova N. BOSHLANGICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	101
37 Almamatova Z.X, Esankulova D. S. Alikulova S. T. EKOLOGIK MADANIYAT VA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING MUHIM JIHATLARI.....	103
38 Murotova G.N., Ismatullayev O. KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA CHET TILLAR BO'YICHA EGALLANGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI MULOQOT JARAYONIDA QO'LLASH QOBILYATIDIR.....	105
39 Mustafaqulova D. I., Ismatullayev O., Azamova M. A. BIOLOGIYA DARSLARIDA “DOMINO” METODIDAN FOYDALANISH.....	108
40 Раббимова Ф.А., Абдумурадова Д.У. ПОЗНАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ ПРИРОДЫ.....	110
41 Жулбоев Т.А., Убайдуллаева З., Абдувалиева К.Х, Султонов М.М. КИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА CROCODILE CHEMISTRY ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ УСУЛИ.....	112
42 Imomov O. N., To'xtaboyeva Yu.A. TA'LIMDA YEVROPA OLIY O'QUV YURTLARINING INNOVATION TAJRIBALARI (Polsha misoldida).....	116
43 Раббимова Ф.Т., Жўраева Л. БўЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЁТДАГИ ҲОЛАТИ.....	118
44 Shaymatov S.R., Maxammadiyev D.M., Pardaboyev S.B. O’QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM – TARBIYA BERISH.....	122
45 Rabbimova F.T., Djomalova V. BOTANIKA DARSLARIDA RA'NODOSHLAR OILASINI O'QITILISHIDA ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	125
46 Toshpo'latov O. INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING TA'LIMDAGI O'RNI.....	127
47 Раббимова Ф.Т., Тошпўлатов О. БўЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	132
48 Кубакова К. К., Остонов Ш. БИОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	135
49 Холбутаев Ш. СИНФДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА – ЭКОТУРИЗМ СОҲАСИ ОРҚАЛИ ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ	